



## AN'ANAVIY IJROCHILIK YO'NALISHIDA AYOLLAR OVOZINI YO'LGA QO'YISHDAGI AMALIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

### **Mashrabova Muxlisa**

Andijon Davlat Universiteti San'atshunoslik fakulteti Musiqiy - ta'lim kafedrası vokal san'ati (an'anaviy xonandalik) ta'lim yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola xonandalik san'ati, an'anaviy ijrochilik yo'nalishida ayollar ovozini yo'lga qo'yishdagi amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va ularning ovoz tembrlarini aniqlashdagi muhim qoidalar haqida.

**Kalit so'zlar:** ovoz, tembr, an'anaviy ijrochilik, xonandalik san'ati.

Xonandalik san'ati musiqa talqinida birinchi omil hamda juda qamrovi keng bo'lgan uslublarga boy, turli yo'nalishlarda shakllanib rivojlanib kelganligi bilan ahamiyatlidir. Unda so'z bor, musiqa bor, muloqot bor ruhiyat bor shu kabi qator omillar borki, ijodiyotda ular befarq qolmasligi kerak. Zero, mukammal aytimlarda, ya'ni mumtoz xonandalikda talqinning har bir tarmog'i raso, sof, zabardast mahoratli va salohiyatli bo'lmog'i darkor. Xofizlik – xonandalikning har tomonlama mukammal va murakkab bosqichi sifatida namoyondalarning bir qator “Xofizlik talab” lariga javob berishini taqozo etadi. Bu talablar xofizlik san'atiga ega bo'lishdagi zarur tabiiy va amaliy omillar bo'lib, o'ziga xos bir qator xarakterli unsurlardan iboratdir. Odatda, har bir kasbning o'z qonun – qoidalariga asoslangan talablari bo'ladi va ular mazkur kasbning asosiy mohiyatini belgilab beradi. Xofizlik san'atining ham ana shunday talablari mavjud va ular quyidagilardan iborat. Ovoz, xotira, nafas, so'z talaffuzi, sozandalik, an'anaviylik ijrochilik bilimi, iste'dod hamda ta'lim mezoni ham muhim hisoblanadi.

Xofiz – kuchli va keng diapazonli, ya'ni 2 - 2,5 oktava oralig'idagi sifatli sadoli, kuchli, latif va yoqimli tembrli hamda his kabi xususiyatlarni o'zida



mujassam etgan ovoz sohibi sanaladi. Ovozlar ham o'z jinsidan kelib chiqib erkak va ayol ovozga bo'linadi. Shunday qilib ayol ovozlarning asosiy turlari – soprano, mezzo soprano va contralto Ular birinchi navbatda, diapazonda, shuningdek, tembr rangida farq qiladi. Tembr xususiyatlariga masalan, shaffoflik, yengillik yoki aksincha, to'yinganlik, ovoz kuchi kiradi.

Soprano – eng yuqori ayol qo'shiq ovozi, uning odatiy ovozi ikki oktava (butun birinchi va ikkinchi oktava). Opera spektakllarida bosh qahramonlar rollarini ko'pincha shunday ovoz turli xonandalar ijro etadi. Agar badiiy tasvirlar haqida gapiradigan bo'lsak, unda eng yaxshisi baland ovoz yosh qizni yoki qanaydir hayoliy harakatlarni xarakterlaydi. Ushbu ovoz lirik va drammatik turlarga bo'linadi. Agar ovoz o'zining yuqori registrda tez o'sish va inoyatni osongina yengsa, unda bunday soprano deyiladi.

Kontralto – bu ayol ovozlarning eng past, juda chiroyli baxmal va juda kam uchraydi. Operalarda bunday ovozga ega qo'shiqchiga ko'pincha o'smir o'g'il bolalarning rollari beriladi.

An'anaviy ijrochilikda soprano va mezzo soprano turdagi ayol ovozlari nisbatan ko'p uchraydi. Bunday ovoz sohibalari shashmaqom tarkibida uchraydigan baland diapazonli asarlarni qiyinchiliksiz kuylay oladi. Ammo, ushbu ovozlarning daromad qismlari shakllanmagan bo'lib, ijro jarayonida biroz noqulaylik tug'diradi. Contralto ovoz sohibalarida buning aksi. Ularda ashulaning pastki no'talari baland va jarangdor eshtilsa, yuqori qismi, ya'ni avjlar u qadar baland va jarangdor bo'lmaydi. Bu ovoz tiplari o'zining imkoniyat darajasidan kelib chiqib, shashmaqom tarkibidagi kichik diapazonli ashulalarni maromiga yetkazib ijro qila oladilar. Ikki ovozning ham o'ziga xos va mos shirasi, eshituvchini o'ziga torta oladigan jarangi bo'ladi.

Yoqimli ayol ovozi odamning idrokiga ta'sir qiladi. Chiroyli ayol ovozi – bu odamning yuragiga to'g'rida to'g'ri yo'l. Shuning uchun unga nafaqat professional





xonandalar e, balki jurnalistlar suxandonlar ham egalik qilishi kerakk Yoqimli ayol ovozigga ega bo'lish baxtiga ega bo'lganlar har qanday sohada muvaffaqiyat qozonishadi. Bu telefonda operator sifatida yoki muzokaralar menejeri sifatida ishlashda ham qo'l keladi.

Ovozlar insonning jismoniy tuzilishiga ham bog'liq. Masalan,og'zi nisbatan katta tanglayi keng, burni uzun bo'lgan xonandalar ovozi o'ta jarangdor, rang – barang tembrli yuqori pardalarga bemalol ovozi qiynalmay chiqadigan qobiliyatga ega bo'ladilar. Bundan tashqari bo'y uzunligi, o'pkaning kengligi ham yetuk ovoz sohibi bo'lishda katta ahamiyatga ega. Xonandalarning ovozi tabiatga, havoga iqlimga, qarab qarab ham o'zgarib turishi mumkin. Sahnaga chiqishga tayyorgarlik ko'rayotgan har bir xonandaning kayfoiyati a'lo darajada bo'lishi lozim. Kayfiyatning tushishi ham ovozga o'z ta'sirini o'tkazadi va ijro kutilgandek natija bermaydi.

. An'anaviy xonandalik bir qator uzluksiz rivojlanib boruvchi omilga tayanadi. Kuy matnini puxta o'rganish, ijro maqsadini imkon qadar to'la ochib berish, ovoz yo'nalishidagi omomenetik qoidalarni aniq ifodalash ana shunday omillardandir. Shuningdek, an'anaviy ijrochilikda ham maqom ashulalarni ijro qilish uchun ayollardan kuchli tembr va ijro mahoratini talab qiladi. Sababi, shashmaqom tarkibida uchraydigan ashulalar kamida ikki yarim oktavalik ovoz kuchini talab etadi. Shuning uchun har bir an'anaviy ijrochilik yo'nalishida ashula iro qilayotgan xonanda ovozni to'g'ri yo'lga qo'yish kerak. No'tog'ri yo'naltirilgan ovoz ovozni buzadi. Uning chiroyli va ishonchli ko'rinishi uchun quyidagi texnik xususiyatlarga e'tibor qaratish lozim.

1)Diafragma bilan nafash olish lozim, ya'ni nafas olayotganda oshqozon ko'tarilib, nafas chiqarganda pastga tushishi kerak. Bu ustida nazoratni kuchaytirishga yordam beradi.



2) Ashula paytida to'g'ri holatni saqlash kerak. Bo'g'inni to'g'ri va bo'shashtirmaslik yaxshiroqdir. Agar siz tik tursangiz, nafas olish osonroq bo'ladi.

3) Ashula paytida tomoqning orqa qismi ochiq bo'lishi kerak, unlilarni aniq kuylash maqsadga muvofiq.

### **Ovozni rivojlantirish uchun:**

1) Rivojlanishni kutish uchun o'zingiz uchun juda baland to'siq qo'ymang, sabr qiling va ovozingizni mashq qiling.

2) Avval sodda qo'shiqlarni kuylang, so'ngra, murakkabroq qo'shiqlarga qarshi kurashing.

3) Sovuq va issiq ichimliklar vokal kordlariga zarar yetkazadi. Yaxshisi, suvni xona haroratida iching va qo'shiq aytayotganda tomog'ingizni vaqti vaqti bilan iliq suv bilan namlang.

4) Quloq uchun fortopianoda notalar chalish va qo'shiq kuylash foydalidir.

5) Odatdagidek intonatsiya bilan gapiring, chunki pichirlash ham qichqiriq ham ovoz kordlaringizga zarar yetkazishi mumkin.

An'anaviy xonandalikda ayniqsa maqom ashulalarni ijro etayotgan paytda ayollar ovozini to'g'ri boshqarish eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Sababi noto'g'ri ishlatigan ovoz ayol sog'ligiga ham jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Vokal san'atida musiqa asarlarini ijro etish yo'li ovozning kenglik ko'lami, kuchi va jarangdorligi bilan ajralib turadi. Yevropa professional vocal san'atida tovushni ko'krakdan, tanglaydan chiqarish kabi usular qo'llaniladi.

Xotin-qizlarning maqomchilik san'atida paydo bo'lishi va qaror topishi erkaklar ashulachligining o'ziga xos jihatlari, ashulachilik usullarini o'zlashtirishdan boshlanadi. Bunda XX asrning buyuk qo'shiqchisi O'zbekiston va Tojikistonda yashab ijod etgan, Izroilda vafot etgan Barno Isoqovanning o'rni beqiyosdir. Ushbu ijodkor erkaklar ashulachiligiining barcha jihatlari ham yaxshi o'zlashtrib, yorqin betakro va jozibali o'zining ijro usulini yaratdi. Bu usul



Tojikiston va O'zbekiston ashulachiligida yetakchi hisobanib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Xotin – qizlar o'zining nafis tabiatliligi tufayli she'riyatning lirik va ruhiy mazmunini ochib bera oladilar. Maqomlardagi har bir matn ham ayollar ijrochiligiga to'g'ri kelavermaydi. Xotin – qizlar matnlari va ayollarga to'g'ri kelmaydigan erkaklar matnlari mavjud. Ushbu ayollar ovozlari ansambl va orkestrlarda erkaklar ovoziga uyg'un holda jaranglay boshlaydi. Bu juda ijodiy topilma bo'lib, tajribaning keng qanot yozishiga olib keladi.

Shunday qilib, an'anaviy ijrochilikda ayollar vokal darsiga ham qatnab turishi o'z ovozlari yo'lga qo'yib olishlari uchun va ijro davomida bemalol o'z imkoniyatlarini ochib berishlari uchun muhim omil hisoblanadi. Andijonlik xushovoz xonanda Habiba Oxunova ham opera asarlarini va maqom asarlarni ham maromiga yetkazib ijro qila olgan. Aynan ushbu ayolning ijrosini tinglaganingizda, to'g'ri olinayotgan nafas va to'g'ri yo'naltirilayotgan ovozga guvoh bo'lishimiz mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "An'anaviy xonandalik" Abduraim Tursunov Termiz 2019
2. "Yakkaxon qo'shiqchilik" O'lmas Rasulov toshkent 2017
3. "Milliy musiqa ijrochiligi masalalari" Fattohon Mamadaliyev, Toshkent 2001
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
5. "Ansambl ijrochiligi uslubi" Sh.Matyakubov Toshkent 2022